Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOIIY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish, budget barqarorligini ta'minlash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Budget resurslarining to'g'ri rejalashtirilishi va maqsadli sarflanishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Budget mablag'larining cheklanganligi va davlat xarajatlarning samaradorligiga bo'lgan talab ortib borayotgani moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalasini tobora dolzarb qilmoqda. Budget mablag'laridan maqsadli, qonuniy va samarali foydalanishni ta'minlashning eng zamonaviy va samarali vositalaridan biri - bu xavfga asoslangan yondashuvdir.

Xavfga asoslangan yondashuv, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining ichki audit tuzilmalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, audit tadbirlarini o'tkazishdan avval audit obyektlari mavjud vaqt va inson resurslari imkoniyatlarini inobatga olgan holda audit tadbirlari o'tkazishi muhim bo'lgan audit obyektlarini aniqlaydi va audit tadbirlarini rejalashtiradi. Baholash natijalaridan kelib chiqib, audit obyektlarining xavf darajasi aniqlanadi va shunga muvofiq audit rejalashtiriladi. Shu orqali ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradigan davlat tashkilotlari va muassasalarining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan xavflarni aniqlash hamda baholash imkoniyati yaratiladi. Natijada budget mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar kuchayadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda budget xavflarini aniqlash va baholash nazorat jarayonining eng muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Budget jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni erta bosqichda aniqlash nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki budget mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda davlat organlarining strategik maqsadlarga erishish darajasini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada O'zbekistonning budget tashkilotlarida ichki audit jarayonlarini takomillashtirish doirasida xavfga asoslangan yondashuv va tahliliy amallarning roli chuqur tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy tajribalar, jumladan budget xavflarini baholash tizimlari, ichki audit obyektlarini xavf darajasiga ko'ra tabaqalash hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish amaliyoti asosida moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola natijalari amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, ichki auditorlar va davlat tashkilotlari rahbarlari uchun ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti xavflarini aniqlash va baholash tizimlari xalqaro amaliyotda muhim o'rin tutadi. M.E. Kosov va O.V. Staroverova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Britaniya, AQSh, Avstraliya va Kanadadagi davlat byudjetlarida xavflarni aniqlash va baholash tizimlari batafsil tahlil qilingan. Ular fiskal risklarni boshqarish bo'yicha eng yaxshi xalqaro tajribani yoritib, davlat organlari va mustaqil institutlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini ko'rsatgan. Xorijiy tajribalarda byudjet xavflarini aniqlashda budget strukturasini, statistik ma'lumotlarni, ilgari qabul qilingan qarorlarning ta'sirini o'rganish, shuningdek prognozlash usullaridan keng foydalanish amaliyoti kuzatiladi [1].

Shuningdek, A. Lukin xalqaro risk boshqaruvi modellari va ularning davlat moliyaviy nazoratida qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, risklarni aniqlash va baholash texnologiyalari davlat moliyaviy boshqaruv tizimida samarali qo'llanilishi mumkin va ularning raqamli iqtisodiyot sharoitida roli ortadi [2].

O'zbekiston sharoitida Abdullaev, Fayziev va Atoev moliyaviy risklarni masofaviy nazorat qilish va boshqarish bo'yicha axborot tizimlari arxitekturasini taklif qilgan. Ular byudjet mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, shaffoflikni oshirish va xatarlarni erta bosqichda aniqlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini ko'rsatgan [3].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi" ichki auditning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlab, riskga asoslangan yondashuvni amaliyotga tatbiq etishga imkon yaratadi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, xorijiy va mahalliy manbalar ichki auditning zamonaviy moliyaviy nazoratdagi o'rni, risklarni baholash va boshqarish mexanizmlari, shuningdek, davlat mablag'larini samarali ishlatishda strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu manbalar asosida O'zbekiston sharoitida ichki audit tizimini raqamli va riskga asoslangan yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Asosiy tushunchalar:

- ichki audit xizmati - davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini amalga oshiruvchi, boshqa tarkibiy tuzilmalardan mustaqil bo'lgan tarkibiy bo'linma;



- ichki audit faoliyati - davlat organlarida budget intizomini mustahkamlash, budget qonunchiligi buzilishining oldini olish, budget mablag'lari va boshqa manbalar samaradorligini baholash hamda ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarini o'rganishga qaratilgan mustaqil faoliyat;

- xavflarni boshqarish - respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni aniqlash, baholash, kamaytirish (oldini olish, bartaraf etish) choralarini ko'rish, xavflar monitoringi va hisobdorlikni ta'minlovchi jarayon;

- ichki audit obyekti - ichki audit tadbiri amalga oshirilishi nazarda tutilgan davlat organlari va tashkilotlarining tegishincha markaziy apparati va boshqaruv apparati tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari hamda tasarrufidagi budget tashkilotlari;

- ichki audit tadbiri - ichki audit obyektlarida ichki audit xizmati maqsadlariga erishishga qaratilgan ichki audit xizmati xodimi tomonidan amalga oshiriladigan jarayon [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv va deduktiv tahlil, mantiqiy umumlashtirish, monitoring hamda ekspress-baholash kabi zamonaviy ilmiy usullardan keng foydalanildi. Ushbu metodlar O'zbekiston budget tashkilotlarida ichki audit faoliyatini xavfga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan kompleks o'rganish, audit obyektlariga ta'sir etuvchi xavf omillarini aniqlash va ularni baholash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vazirlik va idoralarda ichki audit jarayonlarini takomillashtirish doirasida ichki audit obyektlarining xavf darajasini baholash tizimini joriy etish ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar hamda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik tashkilotlarda kollegial asosda "Xavflarni boshqarish" qo'mitalarining tashkil etilishi mazkur tizimning institutsional jihatdan rivojlanishiga muhim zamin yaratdi. Ushbu qo'mitalarning ishchi organi sifatida ichki audit xizmatlarining belgilanishi audit faoliyatining uzluksiz va tizimli olib borilishini ta'minlamoqda.

Tahlil natijalari "Xavflarni boshqarish" qo'mitalari faoliyati orqali moliyaviy, operatsion va ichki nazoratga oid xavflar ro'yxatini shakllantirish hamda muntazam yangilab borish mexanizmlarining joriy etilishi ichki audit tadbirlarini riskga asoslangan rejalashtirish tizimiga o'tkazishga imkon yaratayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, davlat xaridlari sohasida qonunchilik talablari ijrosi ustidan doimiy monitoring o'rnatilishi aniqlangan xavflarni erta bosqichda bartaraf etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda [5].

Ichki audit xizmatining asosiy maqsadi davlat organlari va tashkilotlarida budget intizomini mustahkamlash, budget to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlarining oldini olish, budget xarajatlarning samaradorligi va natijadorligini baholash, ichki audit sohasiga doir hujjatlar ijrosini ta'minlash hamda budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishdan iboratdir.

Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- budget to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash orqali budget intizomini mustahkamlash;
- masofaviy auditni qo'llagan holda budget mablag'laridan samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash va minimallashtirish;
- rivojlantirish dasturlarining samaradorligini tahlil qilish orqali budget xarajatlari natijadorligini oshirish;
- moliyalashtirish jarayonida joriy etilayotgan axborot texnologiyalari samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

➤ ichki nazorat tizimi hamda xavflarni boshqarish jarayonining samaradorligini tahlil qilish.

Xavf omillarini belgilashda ichki audit obyekti moliyaviy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan omillar inobatga olinadi. Amaliyotda quyidagi mezonlar asosiy xavf ko'rsatkichlari sifatida qo'llaniladi:

- yillik moliyalashtirish hajmi;
- mablag'larning o'zlashtirilish darajasi;
- kadrlar qo'nimsizligi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari mavjudligi;
- xodimlar soni;
- moliyalashtirish manbalari soni;
- tranzaksiyalar va shartnomalar soni;



- so'nggi yillarda moliyaviy nazorat tadbirlarining o'tkazilmaganligi;
- debitor va kreditor qarzdorlik hajmining o'sishi.

Xavflarni baholashda mezonlarga ball berish va vazn koeffitsiyentlarini belgilash usulining joriy etilishi ichki audit faoliyatining ilmiy-metodik asoslarini mustahkamladi. Mazkur omillar ichki audit obyektlarining risk darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda [6].

Shuningdek, avvalgi audit natijalari va berilgan tavsiyalar ijrosi darajasi hisobga olinishi baholash jarayonining uzviyligi va izchilligini oshirmoqda. Axborot tizimlari hamda davlat bazalaridan foydalanish esa qo'shimcha xavf omillarini aniqlash imkonini kengaytirmoqda.

Xavf omillariga kamida to'rtta mezon asosida 1–3 ball oralig'ida baho berilishi hamda mazkur omillar vaznlarining yig'indisi 1 ga teng bo'lishi xavfni tizimli va tartiblangan holda hisoblash imkonini beradi. Biroq metodikaning amaldagi samaradorligi asosan ijro intizomi darajasi hamda ichki audit xodimlarining kasbiy salohiyatiga bog'liq ekanligi amaliy tahlillar jarayonida aniqlandi. Belgilangan mezonlarga muvofiq:

Umumiy xavf qiymati 2 va undan yuqori bo'lgan obyektlar "yuqori xavf" guruhiga kiritiladi;

1,5–2 oralig'ida baholanganlar "o'rta xavf" guruhiga kiradi;

1,0–1,5 oralig'ida bo'lganlar esa "past xavf" guruhiga taalluqlidir.

Mazkur tasnif ichki audit tadbirlarini xavf darajasidan kelib chiqib ustuvor tartibda rejalashtirish, resurslarni maqsadli yo'naltirish hamda tekshiruvlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xavf omillarini amaliy mezonlarga asoslangan holda aniqlash maqsadida uchta tashkilot faoliyati misol sifatida o'rganildi. A tashkilot ikki ta moliyalashtirish manbai hisobidan bir moliya yili davomida jami 675 mln so'm mablag' bilan ta'minlangan. Ajratilgan mablag'larning 93 foizi o'zlashtirilgan. Mazkur tashkilotda so'nggi uch yil davomida davlat moliyaviy nazorati tadbirlari o'tkazilmagan.

B tashkilot to'rt nafar moliyalashtirish manbai tomonidan moliyalashtirilib, uning yillik moliyalashtirish hajmi 495 mln so'mni tashkil qilgan. Ushbu mablag'larning 87 foizi o'zlashtirilgan bo'lib, tashkilotda davlat moliyaviy nazorati tadbiri 1,5 yil oldin o'tkazilgan.

C tashkilot beshta moliyalashtirish manbasi hisobidan yil davomida 1 mlrd 430 mln so'm mablag' olgan. Ajratilgan mablag'larning 78 foizi o'zlashtirilgan. Mazkur tashkilotda davlat moliyaviy nazorati uch yil oldin o'tkazilgan.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida har bir tashkilot bo'yicha to'rtta asosiy xavf omiliga ball berilib, vazn koeffitsiyentlari orqali umumiy xavf darajasi hisoblab chiqildi.

Ichki audit obyektlarining xavf darajasini xavf omillari asosida baholash jadvali

T/r	Ichki audit obyektlari nomi	Xavf omili 1			Xavf omili 2			Xavf omili 3			Xavf omili 4			Xavf omilining umumiy bahosi	Xavf darajasi
		Baho	Xavf omili vazni	Qiy-mat	Baho	Xavf omili vazni	Qiy-mat	Baho	Xavf omili vazni	Qiy-mat	Baho	Xavf omili vazni	Qiy-mat		
1	2	3	4	$5=3 \cdot 4$	6	7	$8=6 \cdot 7$	9	10	$11=9 \cdot 10$	12	13	$14=12 \cdot 13$	$15=5+8+11+14+\dots+n$	16
1.	A	2	0.20	0.40	1	0.25	0.25	1	0.15	0.15	2	0.40	0.80	1.6	o'rta
2.	B	1	0.20	0.20	2	0.25	0.50	2	0.15	0.30	1	0.40	0.40	1.4	Past
3.	C	3	0.20	0.60	3	0.25	0.75	1	0.15	0.15	3	0.40	1.2	2.7	yuqori



Yuqoridagi jadvalda ichki audit obyektlarining xavf darajasi to'rtta asosiy xavf omili bo'yicha baholandi. Har bir xavf omiliga obyekt faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib 1 dan 3 gacha ball berildi hamda mazkur omillarning muhimlik darajasiga mos ravishda vazn koeffitsiyentlari belgilandi. Vazn koeffitsiyentlarining yig'indisi 1,0 ga teng bo'lib, bu umumiy xavf darajasini kompleks tarzda aniqlash imkonini berdi. Har bir xavf omilining balli uning vazn koeffitsiyentiga ko'paytirilib, hosil bo'lgan qiymatlar yig'indisi obyektning yakuniy xavf darajasini ifodalovchi integral ko'rsatkich sifatida hisoblab chiqildi.

Mazkur metodika asosida A tashkilot bo'yicha ayrim xavf omillari nisbatan past ball bilan baholangan bo'lsa-da, so'nggi uch yil davomida davlat moliyaviy nazoratining o'tkazilmagani hamda ajratilgan mablag'lar hajmining yuqoriligi uning umumiy risk profilini oshirdi. Barcha omillar bo'yicha hisoblangan yakuniy ko'rsatkich 1,6 ni tashkil etib, bu tashkilotni "o'rta xavf" guruhiga kiritish uchun asos bo'ldi.

B tashkilotda moliyalashtirish hajmining nisbatan pastligi, mablag'larning o'zlashtirilish ko'rsatkichining barqarorligi hamda oxirgi davlat moliyaviy nazorati nisbatan yaqin muddatda o'tkazilgani sababli aksariyat xavf omillari past va o'rtacha ball bilan baholandi. Natijada umumiy xavf qiymati 1,4 ni tashkil etdi va ushbu tashkilot "past xavf" toifasiga mansub deb topildi.

C tashkilot esa yillik moliyalashtirish hajmining yuqoriligi, moliyalashtirish manbalari sonining ko'pligi, ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligining nisbatan pastligi, shuningdek so'nggi uch yil davomida davlat moliyaviy nazorati tadbirlari o'tkazilmaganligi tufayli bir qator xavf omillari bo'yicha eng yuqori — 3 ball bilan baholandi. Vaznli baholash natijasida uning umumiy xavf ko'rsatkichi 2,7 ga teng bo'lib, mazkur obyekt "yuqori xavf" guruhiga kiritildi.

Shu tariqa, jadval asosida amalga oshirilgan baholash ichki audit obyektlarini xavf darajasiga ko'ra tabaqalash, eng muhim va xatarli yo'nalishlarni aniqlash hamda audit tekshiruvlarini ustuvorlik asosida samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ichki audit obyektlarining xavf darajasini baholash tizimi davlat moliyaviy nazoratida zamonaviy riskga asoslangan yondashuvni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur tizimni yanada rivojlantirish ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali rejalashtirishga, audit tadbirlarining natijadorligini oshirishga, barcha audit obyektlarini to'liq qamrab olish hamda ularni doimiy nazorat ostida yuritishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Riskga asoslangan yondashuvni takomillashtirish doirasida ichki auditorlarning kasbiy salohiyatini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, metodologik bazani yagona standartlar asosida rivojlantirish hamda baholash mexanizmlarini to'liq raqamlashtirish orqali ichki audit tizimi samaradorligini bugungi natijalardan ham yuqori bosqichga olib chiqish imkoniyatlari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston budget tashkilotlarida ichki audit jarayonlarini xavfga asoslangan yondashuv orqali takomillashtirish moliyaviy nazoratning samaradorligi va natijadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xavf omillarini tizimli aniqlash va baholash, ularni ball hamda vazn koeffitsiyentlari asosida tabaqalashtirish orqali ichki audit obyektlarini "yuqori", "o'rta" va "past" xavf guruhlariga ajratish amaliyoti shakllanmoqda. Mazkur yondashuv audit tadbirlarini ustuvorlik asosida rejalashtirish, mavjud resurslarni maqsadli yo'naltirish hamda xatarlarni erta bosqichda aniqlab bartaraf etish imkonini bermogda.

Amaliy misollar sifatida tahlil qilingan A, B va C tashkilotlari faoliyati xavf darajasi yillik moliyalashtirish hajmi, mablag'larning o'zlashtirilish ko'rsatkichlari, kadrlar salohiyati, tranzaksiyalar va shartnomalar soni, shuningdek, debitor va kreditor qarzdorlik holati bilan uzviy bog'liqligini tasdiqladi. Avvalgi audit natijalari va berilgan tavsiyalarning bajarilish darajasi esa baholash jarayonining uzviyligi hamda izchilligini ta'minlamogda.

Shu bilan birga, ichki audit tizimida xavflarni baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etuvchi ayrim metodik va tashkiliy jihatlar mavjud. Jumladan, xavf omillarini ball asosida baholashda sifat mezonlarining ustunligi baholash natijalarida subyektivlik ehtimolini saqlab qolmogda. Hududiy ichki audit xizmatlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va amaliy tajribasi darajasidagi tafovutlar baholash natijalarining barqarorligi va obyektivligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Barcha hududlarda axborot tizimlaridan foydalanish bir xil yo'lga qo'yilmagani xavflarni aniqlash va monitoring qilish jarayonlarining tezkorligini cheklamogda. Shuningdek, mavjud ma'lumotlar bazalarining o'zaro integratsiyasi yetarli darajada ta'minlanmagani baholash natijalarini kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarmayapti.

Bundan kelib chiqib, ichki audit tizimini rivojlantirishda auditorlarning kasbiy malakasini oshirish, baholash metodikasini yanada takomillashtirish, risklarni aniqlash va hisobga olish jarayonlarini raqamlashtirish hamda axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Natijada, xavfga asoslangan yondashuvni izchil rivojlantirish ichki audit tizimining samaradorligini yanada oshirib, davlat moliyaviy nazoratida budget mablag'larining maqsadli, oqilona va qonuniy sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Косов М.Е., Староверова О.В. Идентификация и оценка бюджетных рисков за рубежом (лучшие практики управления государственными финансами) // ЭКО. – 2023. – № 8. – С. 118–138.
2. Lukin A.G. Risk Management Technologies within the System of State Financial Control // TEM Journal. – 2019. – Vol. 8, No. 2. – P. 444–453.
3. Abdullaev M.R., Fayziev S.I., Atoev A.E. Mechanisms for identifying financial risks and implementing effective remote control // Journal of Applied Science and Social Science. – 2025. – Vol. 15, Issue 4. – P. 588–593.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori, 01.08.2022 yildagi 416-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmon. – Toshkent, 2022-yil 27-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri. Ichki audit tadbirlarini o'tkazish to'g'risida buyruq. – 2022-yil 27-dekabr, Adliya vazirligida ro'yxatga olingan № 3406.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>